



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI**

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq– 2025

Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami, II Tom. – Toshkent: «Zebo print», 2025. 305 b.

Mas'ul muharrir:

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

Ushbu to'plamda Qadimgi va o'rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqola va tezislar o'rin olgan. Konferensiya materiallaridan tarixchilar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor- o'qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy- iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o‘rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o‘qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga

chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o'tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo'lishiga ishonch bildiraman..

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov

8.Beysembiyev T. K., „Ta’rixii Shahruxi“ kak istoricheskiy istochnik, AlmaAta, 1987; Munirov K., Irisov A., Nosirov A., Toshkent tarixida ba’zi siymolar, T., 1983;

9.Sodiqova N. S., Buryakov Yu. F., Qadimgi va hozirgi Toshkent, T., 1965;

XO‘JA AHROR VALIY BUYUK SIYMO

Ergasheva Sevinch Umirboy qizi,

Chirchiq Davlat Pedagogika

Universiteti 1- bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk siymo Xo‘ja Ahror Valiy hayoti , faoliyati, tariqatdagi roli, ma’rifati va yozmalari haqida ma’lumotlar beradi. Uning asliy nomi, tarixiy yodgorliklari, talimlari, maqomlari va o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini ham taqdim etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Xo‘ja Ubaydulloh Ahror Valiy, tarikat , ma’rifat, „Samariya“.*

Xalqimizda mehr-oqibat, insof, adolat, insonlarni yaxshilikka undash va ular o‘rtasidagi munosabatlarni isloh etish kabi azaliy qadriyatlar mavjud. O‘zbekning o‘zligi, o‘ziga xos mentaliteti va buyukligini belgilaydigan mazkur tamoyillar ko‘hna tariximizning ildiz-ildizlariga borib taqaladi. Ko‘hna tariximizda shunday shaxslar o‘tganki, ular o‘zlarining sermazmun hayoti, ibratli faoliyati, ma’naviy-ma’rifiy o‘g‘itlari bilan el-yurt manfaatlari yo‘lida kuch-g‘ayratini kerak bo‘lsa, mol -mulkini ham ayamagan . Ana shunday zoti shariflardan biri Xo‘ja Ahror Valiy(1404-1490) hazratlari hisoblanadi.

Faxriddin Ali as-Safiyning «Rashahot ayn al-Hayot» («Hayot buloqlaridan tomchilar») nomli asarida yozilishicha, Xoja Ubaydulla – Xoja Ahror 1404 yil mart oyida (906 yil Ramazon) Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumaniga qarashli Bog‘iston qishlog‘ida tavallud topgan. Xoja Ubaydullo – Xoja Ahrorning nasabnomasida (shajara) u ota tomonidan choxoryorlarning birinchisi Abu Bakr Siddiqqa (632-634), ona tarafdan choxoryorlarning ikkinchisi Umar ibn al-Hattobga (634-644) borib tutashadi deyilgan. Mavlono Muhammad Qozining «Silsilat ul-orifin» nomli asarida Xoja Ahrorning shajarasi ancha mukammal berilgan. Chunonchi, shajara tarixida qayd qilinishicha, Xoja Ubaydullo Ahrorning otasi Xoja Mahmud, Xoja Mahmud Xoja Shaxobiddinning o‘g‘li bo‘lib, Xoja Shaxo biddin uch yo to‘rt avlod bilan Xoja Nomiya tutashadi.

Xo'ja Ahror boshlang'ich ma'lumotni Toshkent madrasalarida oladi. 20 yoshdan o'tganda, tog'asi Xo'ja Ibrohim uni Samarqandga olib boradi. Bu yerda u turli fanlardan ta'lim oladi. Xo'ja Ahror ko'pincha tasavvuf ilmiga qiziqar edi. Bu qiziqish uni Hirotga yetaklaydi. Shu maqsadda 24 yoshida Hirotga borib, tasavvuf tariqati vakillari bilan uchrashadi. Ulardan biri mashhur orif va tabrizlik shoir Sayyid Qosim Anvor (vafoti1433) edi . Shuningdek Xo'ja Ahror Bahouddin Umar (vafoti 1453), Shayx Zayniddin Xavofii (vafoti 1439) , lar huzurida bo'ladi. So'ngra u Chag'oniyonning Xul'atu mavzeida istiqomat qiluvchi Xo'ja Bahouddin Naqshbandiyning shogirdi bo'lgan Yaqub Charxiy (vafoti 1447) ga qo'l berib, undan naqshbandiya tariqati asoslarini o'rganadi.

1431-1432- yillar orasida Xo'ja Ahror Toshkentga qaytib, naqshbandiya tariqatining davomchisi sifatida tanilib, dehqonchilik va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotda Xoja Ahror yuksak mavqeyega ega bo'ladi va nihoyatda mo'tabar siymolardan biriga aylanadi. Abu Toxir Xoja o'zining «Samariya» asarida yozishicha, Xoja Ahror ilm ahlini e'zozlar, anjumani hamisha olimlar bilan to'la edi. Binobarin, u ilm ahli uchun Samarqandda bir madrasa qurdiradi[1]

Buxoro amiri Imomqulixonning bosh vaziri Nodir Devonbegi1630-1635 yillar Samarqanddan janubiy-sharqqa bir necha chaqirimda Xoja Ahror Vali dahmasining oldiga madrasa qurdiradi. Nodir Devonbegi nomini olgan mazkur madrasa Naqshbandiya ordenining taniqli sohibi, mashhur shayh Xoja Ahror Vali sharafiga qurilgan.Xoja Ahror so'fichilik ("so'fichilik"-islomdagi tasavvuf yo'nalishi) ordeni bo'lmish Naqshbandiyaning rahbari, Toshkent viloyatidagi Bog'iston tog'-qishlog'i odami. Xoji Ahror ilk Samarqandga 1426 yil 22 yoshida tashrif buyurgan. 1451 yil esa Ulug'bekning o'limidan so'ng temuriylar sulolasining namoyondalaridan biri Abu Sayid hukmronligi davrida butunlay Samarqandga ko'chib o'tgan. Ahmadning tarbiyasi ostida shahzoda deyarli butunlay hukmronlikni qo'lga olgan, Samarqandning haqiqiy hukmdori va davlatdagi eng boy yer sohibiga aylangan. Samarqand atrofidagi me'moriy yodgorlik (15-20-a.lar); Samarqand tumanidagi Ulug'bek qishlog'i hududida. Xoja Axror qabri yaqinida turli davrlarda bunyod etilgan Nodir Devonbegi madrasasi, ikki ayvon, masjid, minora hamda hovuzli hovlidan iborat majmua. Majmuaning markazi 8 yoqli hovuz, uning yonida Xoja Axrorning oq marmarli qabrtoshi bor, qabrtoshiga arab yozuvida husnixat bilan marsiya yozilgan.

Naqshbandiya tariqatining Xoja Ahror Valiy orqali tarqalgan silsila nafaqat Movarounnahr hududi, balki Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, Rum va Misrgacha, Xitoy va Hindistongacha yetib borganligi ko'rishimiz mumkin.

Samarqand qozi kaloni tarixchi Abu Tohir xoja o'zining "Samariya" kitobida: "Xoja Ahrorning o'ziga jalb qiluvchi ohangrabosi shu darajada kuchli ediki, uning shirinsuhan suhbatlari umrbod esga qolardi", deb aytgani ham dunyo tasavvuf ta'limotida uning ma'naviy mavqei yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Akademik Botirxon Valixo'jayev Xo'ja Ahror shaxsiga nisbatan sho'rolar davridagi munosabat va qarashlar borasida shunday yozgan: „Moziy tarixiga nazar tashlanganda juda ko'p voqe- hodisalar, tarixiy shaxslarga duch kelish mumkinki, ularga baho berish yoki ular haqida mulohaza yuritishda har xillik, ba'zan esa qarama-qarshiliklarni kuzatish mumkin. Ma'lumki, Xo'ja Ahror terisida zamonasidan boshlab, bizning davrimizgacha turli kitoblar, maqolalar yozildi. Ammo ayrim ilmiy va badiiy asarlarda Xo'ja Ahror ilm-ma'rifatning dushmani, hatto, Mirzo Ulug'bek fojiasining sababchisi, uning Samarqandda qurilgan mashhur rasadxonasini buzdirgan, undagi ilmiy kuchlarni quvg'in qilgan shaxs sifatida talqin etildi.”

„Shuncha gap-so'z bo'lishiga qaramay,- deb yozadi Botirxon Valixo'jayev,- xalq orasida Xo'ja Ahrorning obro'-e'tibori balandligicha qolaverdi. Uning maqbarasini tabarruk tutuvchi ziyoratchilarning soni kamaymadi. Xo'ja Ahror Valiy hayoti va faoliyatini o'rganish bo'yicha yurtimiz va xorijiy olimlar tomonidan yetarli tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xo'ja Ubaydulloh Ahror Valiy naqshbandiya tariqatining eng buyuk murshidlaridan biri ekanligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda katta iz qoldirib, o'z davrida shuhrati dunyo mamlakatlari bo'ylab mashhur bo'lgan. Uning tasavvuf tarixidagi buyuk xizmatlaridan biri naqshbandiya silsilasi islom olamidagi eng ulug' silsilalardan biriga aylanishidir. Xo'ja Ahrori Valiy tasavvuf tarixida birinchi bo'lib xalq ravnaqi yo'lida tariqatni siyosatga, podshohlarga ta'sir ko'rsatuvchi amaliyotga aylantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ne'matulla Muhammedov. „Shosh vohasi olimlarining ilmiy-ma'naviy merosi“. „Toshkent islom universiteti“. Nashriyot matbaa birlashmasi Toshkent – 2007.

2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/xoja-ahror-valiy-1404-1452>

3. Abu Tohirxoja. Samariya. Tahrir hay'ati: B. Ahmedov va boshq.- T.: Kamalak, 1991.- 81 b.

- 4.Kattayev K. Tasavvuf allomalari. T.: G'afur G'ulom, 2017. 320 b.
- 5.Valixo'jayev B. Xo'ja Ahror tarixi. -T.: Yozuvchi, 1994.-B. 61
- 6.Ma'naviyat yulduzlari, T., 1999.
- 7.Ubaydulla Uvatov, Zokirjon Kutiboyev. O'zME, Toshkent, 2000-yil

CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI

Do'smurotov Raximjon Baxtiyor o'g'li

Chirchiq shahar 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Chirchiq shahrining tarixi 1932-yilda elektroximik kombinatining qurilishi bilan boshlandi. Shahar hozirgi kunda sanoat va ta'lim markaziga aylangan. U Toshkent viloyatining eng muhim shaharlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Chirchiqning tarixiy rivojlanishi, uning sanoati va iqtisodiyoti, shuningdek, ta'lim va ijtimoiy infratuzilmasi tahlil qilinadi. Shahar bugungi kunda o'z sanoatini rivojlantirib, transport va ta'lim tizimini modernizatsiya qilmoqda.

Kalit so'zlar:Chirchiq, elektroximik kombinat, sanoat rivoji, ikkinchi jahon urushi, transport tizimi, ta'lim muassasalari, shahar arxitekturasini, o'zbekistondagi shaharlar.

Аннотация. История города Чирчик начинается с 1932 года, когда было начато строительство электрохимического комбината. В настоящее время город стал центром промышленности и образования и является одним из важнейших городов Ташкентской области. В данной статье рассматривается историческое развитие Чирчика, его промышленность и экономика, а также образовательная и социальная инфраструктура. В настоящее время город развивает свою промышленность, модернизируя транспортную и образовательную систему.

Ключевые слова: Чирчик, электрохимический комбинат, развитие промышленности, Вторая мировая война, транспортная система, образовательные учреждения, городская архитектура, города Узбекистана.

Abstract. The history of Chirchik began in 1932 with the construction of the electrochemical plant. Today, the city has become a center of industry and education and is one of the most important cities in the Tashkent region. This article examines the historical development of Chirchik, its industry and economy, as well as its educational and social infrastructure. Today, the city is

AN'ANALARI	
D.Normurodov BO'STONLIQ TUMANI "SIJAK" MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA	93
D.Muhammadiyeva TOSHKENT VILOYATI HAQIDA	96
S.Ergasheva XO'JA AHROR VALIY BUYUK SIYMO	100
R.Do'smurodov CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI	103
Sh.Ashurova SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIDAGI TUTGAN O'RNI	107
D.Egamov QADIMGI TOSHKENT VOHASI	111
N.Iskandarova O'ZBEKISTONDA QADIMGI TOSHKENT	113
A.Egamurodov O'ZBEKISTON-FRANSIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO'LI (1991-2024)	116
X.Eralov TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI (CHOCH VA BINKAT)	120
Ch.Ergasheva O'ZBEKISTON VA VENGRIYA O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK: ZAMONAVIY BOSQICH VA ISTIQBOLLAR	126
Sh.Erimbetova QADIMGI O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI	129
A.Erkinov QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI	132
S.Erlapasov XII-XV ASRLARDA RUSDA SIYOSIY IQTISODIY-IJTIMOIOY RIVOJLANISHI	135
S.Eshboboyev EFTALIYLAR DAVRIDA CHOCH	137
Y.Usmonova DAVAN DAVLATI: FARG'ONANING QADIMGI SIYOSIY TUZUMI VA XITOY BILAN MUNOSABATLARI	140
F.Eshimova SHARQIY TURK XOQONLIGI	143
R.Yolg'oshev SHOSHEPA – TOSHKENTNING ENG QADIMGI MANZILGOHI	146
D.Eshmuhamedova CHIRCHIQ SHAHRINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLI	149
M.Eshquvvatova MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI	154
S.Esonova MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI	157
L.Ochilodiyev AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI	160
M.Rixsiboyeva BUYUK TEMURNING TOLERANTLIK SIYOSATI, YHUD ISLOM DINIGA BO'LGAN MUNOSABATI	165
D.Gulyamov SOHIBQIRONGA YO'LBOSHCHI BO'LGAN PIRLAR	168
Z.Xurramova SOHIBQIRON AMIR TEMURNING O'ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI	176

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Mas'ul muharrir:

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.